

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lism
Ta'lism sohasi:	110000 – Ta'lism
Ta'lism yo'nalishi:	60112100-Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

Chirchiq – 2023

Fan/modul kodi MMITE406	O‘quv yili 2026-2027	Semestr 7	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O’zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Manaviy-marifiy ishlarni tashkil etish metodikasi	90	90	180
2.	<p>I. Fanning mazmuni. Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarni Ma’naviy-ma’rifiy ishlar va uni tashkil etish metodikasi fanining nazariy asoslariga doir bilimlar bilan qurollantirish. Fanning vazifasi – talabalarni kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o‘quvchilami g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiyalash va ta’limni samarali tashkil etishga o‘rgatish, pedagogik faoliyatni to‘la anglay olish qobiliyatini shakllantirish, pedagogik faoliyatni tashkil etishda innovatsion yo‘nalishlami o‘rganishdan iborat.</p> <p>II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi tushunchasi va predmeti. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish metodikasining yetakchi sohasi sifatida. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi manbalari. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi subyektlari.</p> <p>2-mavzu. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimi Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va unda inson qadri masalalari bo‘yicha fikr va mulohazalar yuritilgan. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar sohasidagi yutuq, kamchilik, muammo va ularning yechimlari, tashkil etilayotgan tadbirlarda insonlarni qadrlash, ularga g‘amxo‘rlik qilish tadbirlarni tashkil etish</p> <p>3-mavzu. Jamiatni insonparvarlashtirishda manaviy-ma’rifiy ishlarning o‘rni Jamiyatni insonparvarlashtirishda manaviy-ma’rifiy ishlarning o‘rni va asoslari. Xalq hokimiyatchiligining konstitutsiyaviy asoslari. Konstitutsiya va qonunning ustunligi.</p> <p>4-mavzu. Ma’naviy-marifiy ishlarni tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar Me’yoriy-huquqiy hujjatlar tushunchasi. Me’yoriy-huquqiy hujjatlarning yuridik asoslari Ma’naviy-marifiy ishlarni tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar. Huquq va erkinlik kafolatlari.</p>			

5-mavzu. Ma’naviy - ma’rifiy tarbiya, jamiyat va yoshlar

Ma’naviy - ma’rifiy tarbiya tushunchasi. Tarbiyaning asoslari. Jamiyat va yoshlar tushunchasi. Jamiyat va yoshlarning huquqiy asoslari Vatanni himoya qilish himoya qilish.

6-mavzu. Uzluksiz ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaning roli

“Ta’lim to‘g‘pisida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq ta’lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta’lim, fan, texnika va texnologiyalar pivojlanishining ilg‘op jahon darajasiga muvofiqligini ta’minlash

7-mavzu. Ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi

Madaniy-ma’rifiy ishlar bilan shug‘ullanuvchi davlat va jamoat tashkilotlari, xususan, “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazining ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qilish. Mamlakatimizda vataniga, xalqiga fidokor, mustaqil fikrlaydigan, masalalarni ongli ravishda, mas’uliyat bilan hal qila oladigan, izlanuvchan, yangilikka intiluvchi va istiqlol g‘oyalariga sadoqatli avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan qator tadbirlar tizimi ishlab chiqildi. Islohotlarning taqdiri va samarasi uchun javobgar, yurtimizning ertangi kuni va istiqboli uchun fidoyi shaxslarni shakllantirish borasida ustuvor davlat siyosati yuritilmoqda. Yagona g‘oya — Milliy istiqlol mafkurasi mavjud intellektual imkoniyatlarni ishga solishga, yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashga, oliyjanoblik tuyg‘ularini chuqurlashtirishga, shonli o‘tmishga hurmat va porloq kelajakka ishonch hislarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

8-mavzu. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining tashkil etilishi va faoliyati

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashi “Jaholatga qarshi ma’rifat” g‘oyasiga tayangan holda Kengashga a’zo tashkilotlarning ma’rifiy targ‘ibot yo‘nalishidagi imkon va salohiyatlarini birlashtirish, faoliyatlarini muvofiqlashtirish va zamonaviy talablar asosida tashkil etish. Mamlakat ahli, ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlod qalbi va tafakkurida milliy g‘oya, milliy mafkura va umumbashariy qadriyatlarga, demokratik tamoyillarga asoslangan dunyoqarashni shakllantirish;

Jamoatchiligidim ongiga istiqlol g‘oyalariga cheksiz sadoqat, ona diyorga mehrmuhabbat, ozod va obod Vatan barpo etishdek ulug‘ va oliyjanob maqsadga e’tiqod, jasurlik va fidoyilik ruhini yanada chuqur singdirish;

Milliy qadriyatlarimiz va ulug‘ mutafakkirlarimiz merosidan butun xalqimiz, jumladan, yoshlaringizning ham bahramand bo‘lishiga, islam dinining insonparvarlik falsafasi, g‘oyalari yosh avlod qalbidan joy olishiga ko‘maklashish;

Har bir fuqaroda o‘z haq-huquqi, imkoniyati va irodasiga tayanish, o‘z taqdirining buniyodkori bo‘lish, mamlakatda kechayotgan yangilanishlar, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlarning ma’no-mohiyati, maqsadini teran anglagan tarzda uning

faol ishtirokchisi va kurashchisiga aylanish tafakkurini kamol toptirish; Ma'rifiy targ'ibot ishlarining shaklan va mazmunan uyg'unligi va muntazamligini, xalqchil va haqqoniylilikka, jamoatchilik fikri va kuchiga, barcha sohalardagi sog'lom fikrlovchi fuqarolar salohiyati va harakatiga asoslanishini ta'minlash

9-mavzu. Hozirgi bosqichda ma'naviy-ma'rifiy ishlar va unga qo'yilayotgan talablar

Aholi o'rtasida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish; mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka samarali yetkazish;

Oila, mahalla, ta'lim muassasalari va mehnat jamoalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish va sog'lomlashtirishga qaratilgan faoliyatda ishtirok etish, "mahalla — tuman — viloyat — respublika" prinsipi asosida hududlar kesimidagi ijtimoiy-ma'naviy muhit xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish;

"Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida jamiyatda uzlusiz ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo'nalishlari, ta'sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish

10-mavzu. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning mohiyati va asosiy yo'nalishlari.

Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummiliy harakatga aylantirish;

oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyilagini ta'minlash;

Targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;

El-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish; madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish;

Geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish

11-mavzu. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishning ilmiy-uslubiy asoslari

Mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha davlat organlari, nodavlat tashkilotlar va ishchi (ekspert) guruhlarining bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish; milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo‘lgan zararli g‘oyalar va ma’naviy tahdidlarning mohiyatini va aholining turli qatlamlariga ta’sirini o‘rganib borish; Yoshlarimiz ongiga salbiy ta’sir etuvchi, ularni g‘oyaviy jihatdan qaram etishga yo‘naltirilgan harakatlarga qarshi samarali kurash olib borish hamda irodali, fidoyi, vatanparvar va o‘z mustaqil fikriga ega avlodni tarbiyalash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish; Davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, keng ko‘lamli islohotlarning mohiyati, qabul qilingan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish bo‘yicha davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va takliflar tayyorlash.

12-mavzu. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar

Ma’naviy--ma’rifiy ishlar – keng ommani ma’naviy va ma’rifiy jihatdan tarbiyalash, ularning umumiy ma’naviy saviyasini yuksaltirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo‘s sh vaqtlarini samarali o’tkazishga ko‘mak beruvchi tadbirlar tizimini ifodalovchi tushuncha. Ma’naviy--ma’rifiy ishlar mazmuni, maqsad-muddaolari har bir zamon va makonning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy, g‘oyaviy, mafkuraviy xususiyatlariga chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. Ma’naviy--ma’rifiy ishlar tushunchasi keng ma’noda o‘quv muassasalari ta’lim-tarbiya maskanlari, klublar, axborot-resurs markazlari, madaniyat va istirohat bog‘lar faoliyatini qamrab oladi. Bunda muzey, kinoteatr, teatr va boshqa madaniy-ma’rifiy muassasalar, shuningdek, OAV (gazeta, jurnallar, Internet, radio, TV) muhim o‘rin tutadi.

13-mavzu. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishning zamonaviy texnologiyalari

Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish usullari, texnologiyalari, ustuvor yo‘nalishlari XXI asrda insoniyat o‘z taraqqiyotining sifat jihatidan yangi pallasiga qadam qo‘ydi. Dunyoda katta o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan bugungi kunda ijtimoiy makonni o‘zlashtirishning yangi usullari, jumladan, yangi texnologiyalar keng rasm bo‘ldi. Texnologiyalar asri deb atalayotgan XXI asrda ishlab chiqarishda joriy etilgan yangi texnologiyalar mehnat samaradorligini misli ko‘rilmagan darajada o‘stirib yubordi. Biroq yangi texnologiyalar faqat sanoat va qishloq xo‘jaligida qo’llanilmayapti, balki ma’naviy, mafkuraviy jarayonlarda ham o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. Mamlakatimizdagi mafkuraviy jarayonlarga ham shu nuqtai nazardan yondoshish ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zaruratini ko‘rsatadi. Ma’naviyat va ma’rifat g‘oyalarini xalq qalbi va ongiga singdirish muayyan texnologiya asosida olib borilganida tadbirlarning ketma-ketligi, miqyosi va me’yori, davomiyligi va tamoyillari singari jihatlar qamrab olinadi..

14-mavzu. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini oshirishda kadrlarning o‘rni

Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonlarini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida bo‘limning asosiy vazifalari ma’naviy-ma’rifiy tizimga rahbarlik qilish, ushbu sohada olib borilayotgan ishlarni takomillashtirish, ilg‘or tajribadan foydalangan holda zarur ilmiy va uslubiy adabiyotlar nashrlarini tayyorlashdan iborat, barcha sohalarda ishlaydigan xodimlarni o‘qitish, turli to‘garaklar va sport va jamoat klublari, uchrashuvlar tashkil etish, talabalarga umuminsoniy qadriyatlar, tarixiy urf-odatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, mustaqillik g‘oyalariga sodiqlik, ma’naviy sohadagi yutuqlar, yangi talablarga javob beradigan yuqori malakali etuk mutaxassislar tayyorlash

15-mavzu. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish vazifalari

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini tizimli va izchil amalga oshirish, bu borada keng jamoatchilik, olimlar, mutaxassislar, ijodkor ziyolilardan iborat “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyatini shakllantirish hamda uning faoliyatini doimiy asosda yo‘lga qo‘yish;

Dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib borish, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”, narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish;

Jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to‘sinqlik qilayotgan ichki tahidilar – el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish;

Milliy g‘oyani yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlar, ijtimoiy toifa vakillari o‘rtasida keng targ‘ib etish, buniyodkorlik ruhini yalpi ijtimoiy harakatga aylantirish, ertangi kunga ishonch tuyg‘ularini kuchaytirish;

III. Seminar mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari
2. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimi
3. Jamiyatni insonparvarlashtirishda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning o‘rni
4. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tartibga soluvchi meyoriy-huquqiy hujjatlar
5. Ma’naviy -ma’rifiy tarbiya, jamiyat va yoshlar
6. Uzluksiz ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaning roli
7. Ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi
8. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining tashkil etilishi va faoliyati
9. Hozirgi bosqichda ma’naviy-ma’rifiy ishlar va unga qo‘yilayotgan talablar
10. Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning mohiyati va asosiy yo‘nalishlari

- 11.Ma’naviy- ma’rifiy ishlarni tashkil etishning ilmiy-uslubiy asoslari.
- 12.Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar
- 13.Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishning zamonaviy texnologiyalari
- 14.Ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini oshirishda kadrlarning o‘rni
- 15.Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish vazifalari

Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo‘yilgan masalani o‘rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to‘liq ochib beriladi.

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Ma’naviy -ma’rifiy tarbiya, jamiyat va yoshlar
- 2.Uzluksiz ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaning roli
- 3,Ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi
- 4.Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining tashkil etilishi va faoliyati
- 5.Hozirgi bosqichda ma’naviy-ma’rifiy ishlar va unga qo‘yilayotgan talablar
- 6.Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning mohiyati va asosiy yo‘nalishlari
- 7.Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar
- 8.Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishning zamonaviy texnologiyalari
- 9.Ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini oshirishda kadrlarning o‘rni
- 10.Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish vazifalari
11. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarning mazmun-mohiyati, ilmiy-uslubiy asoslari va asosiy yo‘nalishlari
12. Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishning ijtimoiytarixiy genezisi.
13. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlashdagi o‘rni.
14. Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkillashtirish, boshqarish va aniq maqsadlarga yo‘naltirish usullari.
15. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishning yangicha ilmiy metodologiyasi.
16. Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni zamonaviylashtirish usulblari.
17. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari
- 18.Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimi.
19. Jamiyatni insonparvarlashtirishda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning o‘rni
20. O‘quvchilari ma’naviy-ma’rifiy ishlarga jalb qilish usullari.

3.	<p style="text-align: center;">VII. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <p>- “Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi” fan orqali talabalarga Milliy g‘oya, ma’nayiyat asoslari va huquq ta’limi bakalavriat yo‘nalishini tamomlagan mutaxassislarga darslar beradilar. Pedagogika boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, kuni uzaytirilgan guruh tarbiyachisi, tarbiyaviy ishlar yetakchisi kabi ixtisosliklar bo‘yicha mutaxassis tayyorlaydi. Bo’lajak tarbiyachilaming nazariy pedagogik bilimlar bilan qurollantirishda mazkur fan alohida ahamiyatga egaligi haqida tasavvurga ega bo‘lishi; (bilim)</p> <p>- Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish metodikasining xususiyatlarini to‘g‘ri anglash, jamiyatda bo‘layotgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni konstitutsiyaviy qonunchilik bilan bog‘lay olish Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish haqida taassurotga ega bo‘lish, hujjatlarni tuzishni bilish, uning amalga oshirish asosiy metodlarini tahlil qilish va ulardan foydalana olishi; (ko‘nikma).</p> <p>- Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish analizni bilish, o‘qish davomida olgan bilimlarni kasbiy va jamiyat-siyosiy faoliyatda ijodiy qo‘llay bilish haqida malakalarga ega bo‘lishi kerak.</p>
4.	<p style="text-align: center;">VIII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma’ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo‘lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar
5.	<p style="text-align: center;">IX. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>
6.	<p style="text-align: center;">X. Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz asoslari. T.:O’zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2006 yil. 2. A.Utambetova, D.Nurnazarov «Ma’naviyat asoslari» fani bo‘yicha Maruza matnlari. Toshkent 2012. 3. Parmanov S.A. Ma’naviy - ma’rifiy ishlar va uni tashkil etish metodikasi. Toshkent 2008. <p style="text-align: center;">XI. Qo‘srimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz “O’zbekiston”, 2017.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



**MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lism
Ta'lism sohasi:	110000 – Ta'lism
Ta'lism yo'nalishi:	60112100-Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

Chirchiq – 2023

